

UDK 338

Farrux Rustamovich Rustamov

Bux DPI dotsenti, sotsiologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD).

ICHKI VA TASHQI TURIZMNING HORDIQ INDUSTRIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo mamalakatlarida qatorida O'zbekistonning ichki va tashqi turizmga oid taraqqiyoti hordiq industriyasi asosida ilmiy – nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqtisod, ziyorat turizm, salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstremal turizm va hokazo.

Kirish: Jahon mamalakatlarida turizm xalqlarni iqtisodiy va madaniy rivojlantirishda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimizning boy intellektual, tarixiy, madaniy salohiyati, geografiyasi va bugungi kundagi baravj taraqqiyot tendensiyasidan kelib chiqib turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish, yangi istiqbollarini belgilash ishlari jadal olib borilmoqda. Salomatlik turizmi, tibbiyot turizmi, ekoturizm, ekskursiya turizmi, sport turizmi, ekstremal turizm, ziyorat turizmi singari yo'nalishlarni rivojlantirish hamda zamonaviy marketingni hisobga olgan holda, raqobatbardosh turistik mahsulotlar ishlab chiqish va xizmatlarini qo'llash strategiyalarini ishga tushirish, ularni ichki va xalqaro turizm bozorlarida targ'ib qilish bilan turizm sohasida mamlakatimizning yangi istiqbolli imijini shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Zamonaviy sharoitda yangi voqeliklar bilan bog'liq sohalarning yuzaga kelishi, mehnat taqsimotining tarkiban va mazmunan yangi manzara kasb etgani dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi, mehnat bozorining holati va ishlash xususiyatlarining o'zgarishi bo'sh vaqtga bo'lgan munosabatning ham tubdano'zgarishiga olib keldi. Ma'lumki, texnologik o'zgarishlar mehnat taqsimotining yangi turlari yuzaga kelishi va mehnat bozori resurslarining moslashuvchanligiga olib keladi. Jamiyatdagi ijtimoiy holatni hisobga olmasdan turib modernizatsion jarayonlarni tezlashtirish ishsizlikning o'sishiga va jamiyatda disproporsional muhitni yuzaga keltirib, odamlarda psixologik noqulaylik va ijtimoiy beqarorlikka olib keladi. XXI asrdagi ishsizlar armiyasining vujudga kelishi sanoatning tobora jadal rivojlanishi sharoitida ishsizlik yuzaga kelishining bosh xususiyati «aqli» boshqaruvga o'tish vaqtni bo'shatishga intilish samarasidir. Ammo ish samaradorligi va bo'sh vaqt nafaqat ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishining natijasi, balki uning zaruriy shartidir. Shu bilan birga, hayot ritmlarining keskinlashuvi, ishdan mahrum bo'lish ehtimoli va uni o'zgartirish zarurati, o'zgarishlarni doimiy ravishda anglash zarurati, kasbiy fazilatlarini real holatlarga moslashtirish, jamiyatda to'liq ishsizlik va qisman (yashirin, mavsumiy bandlik, norasmiy va boshqalar) ishsizlik turlarining mavjudligi, ijtimoiy normalardan chetga chiqish va boshqalar ijtimoiy konformizmga olib keladi. Insonning jamiyat hayotiga faol kirishishga tayyorgarligi, rivojlangan ishlab chiqarishga integratsiyalashuv madaniy, siyosiy, psixologik munosabatlar tizimi, turli xil hayotiy vaziyatlarni idrok etishda mezon va me'yorlarni shakllantirish, jamoat hayotining turli tuzilmalariga qo'shilish intensivligi – bularning hammasi hamishaham bo'sh vaqt sohasiga bog'liq emas.

Shuningdek, «O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4861-sonli farmonida ichki turizm rivojiga, xususan, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish kabi turlarini ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyatiga tatbiq etish vazifalari qo'yilgan edi. Ayniqsa, bolalar, o'smir va yoshlar, keksalar uchun maxsus ijtimoiy turizm yo'nalishini tashkil etish hamda kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarni amalga oshirish shular jumlasidandir.

Asosiy qism: Xizmatlar sohasi tarkibidagi kichik korxonalar faoliyatini rag'batlantirish maqsadida so'nggi besh yilda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ichki va xorijiy turizm sohasini rivojlantirishda ulkan imkoniyatlar eshigini keng ochdi. Ayni vaqtda ta'kidlash

joizki, mavjud holat, ya'ni, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi, turizm xizmatlari sifati, shuningdek, tarmoqni boshqarish tizimi jahondagi jadal globallashuv va keskin raqobat sharoitidagi zamonaviy talablarga hali to'liq mos kelmaydi. Buning uchun esa xizmat ko'rsatishning barcha sohalarini rivojlantirish va aholini ish bilan ta'minlash uchun milliy makonimizga xos bo'lgan xizmatlarni joriy qilish, xorijning moliyaviy manbalaridan foydalanish, zamonaviy xorijiy texnika va texnologiyalarni qo'llash talab etiladi. Bunday imkoniyatlardan foydalanib, milliy turizm sohasini taraqqiy ettirishning strategik yo'nalishlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- turizm orqali hordiq industriyasi subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, sohani rivojlantirishdagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish;
- hordiq industriyasining ommalashib borayotgan turlari – ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, sog'lomlashtirish, qishloq xo'jaligi, ishbilarmonlik, yoshlar va oilaviy yo'nalishlar bilan bog'liq dam olish turlarini jadal rivojlantirish;
- turizm infratuzilmasining zamonaviy obyektlari, eng avvalo, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya tizimini jadal rivojlantirish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish;
- raqobatbardosh turizm mahsulotlarini ishlab chiqish, har bir hududni brend jihatlari bilan mashhur qilish, mintaqalarda erkin sayohat yo'nalishlarini yaratish, ularni jahon turizm bozorlarida ommalashtirish imkoniyatlarini yaratish;
- hordiq industriyasini jadal rivojlantirishda malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish strategiyalari va hokazo.

O'tkazilgan yalpi sotsiologik tadqiqot natijalari hamda ekspert intervyu xulosalari asosida dissertant tomonidan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, har 30 nafar xorijiy sayyoh hamda 60 nafar ichki turist mamlakatimizda turizm sohasida bir nafar doimiy ish o'rnini, unga turdosh bo'lgan tizimda esa yana ikkita yangi ish o'rni yaratilishiga sabab bo'ladi¹.

Hordiq industriyasini rivojlantirilishi holatini tizimli tahlil qilish mamlakatimizda mazkur sohani baravj taraqqiy ettirishda axborot tanqisligi mavjudligini ko'rsatmoqda, xususan, aholining turli tabaqa vakillari uchun turizm sohasidagi resurslarimiz to'g'risida ma'lumotlar yetarli darajada emasligi kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida turizmga qiziqish pastligiga olib keladi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovga jalb etilgan respondentlarning 72,4 foizi mamlakatimizda ekoturizm, tarixiy, etnologik hamda an'anaviy tibbiy-salomatlikni tiklash borasidagi ma'lumotlarga ega emasligini ko'rsatdi. Mamlakatimizdagi sanatoriylar to'g'risidagi ma'lumotlar xususida ham aholining axborotga egalik darajasini ham qoniqarli, deb bo'lmaydi (42,3 foiz).

Shu boisdan ham bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilgan holda real imkoniyatlarimiz bilan aholini tanishtirish turizmni jadal rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, internet tarmog'i orqali turizmni rivojlantirish uchun deyarli barcha turizm tashkilotlaridagi o'z veb – sahifalardan ham keng foydalanish mumkin. Internet veb — sahifalari turizm tashkilotlariga katta naf keltirib, keng auditoriyaga ega bo'lish imkonini beradi. Veb-sahifaning ko'rkamligi, boy ma'lumotlar bilan boyitilganligi turistik tashkilotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shu boisdan ham axborot texnologiyalarining ta'sirini oshirish sohani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Hordiq industriyasini barqaror rivojlantirishning yana bir imkoniyati hududlarning o'ziga xos xususiyatlariga tayanish asosida hisoblanadi. Buning uchun esa quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarurdir:

- hududdagi turizm bozorining holati va bu tarmoq ravnaqining asosiy muammolarini aniq raqamlashtirib baholash;

¹ Muallif tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari.

- hordiq industriyasining qaysi yoʻnalishlari mintaqa manfaatlariga toʻliqroq javob berishi, qaysi yoʻnalishlarni jadal rivojlantirish va ishlab topilgan mablagʻlarni halol va adolatli sarf etish borasidagi ishlarni puxta raqamlashtirish;

- hordiq industriyasini rivojlantirish evaziga mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy ravnaq topish jarayonlarini barqarorlashtirish, ishsiz aholi uchun doimiy daromad manbalarini yuzaga keltirish.

Soʻnggi besh yil Oʻzbekistonda hordiq industriyasi sohasida juda koʻp yangiliklar va islohotlar hayotga joriy etildi. Turizm sohasini jadal rivojlantirishga yoʻnaltirilgan prezident farmon va qarorlari, oliy taʼlim muassasalarida yangi taʼlim yoʻnalishlarining ochilishi, boshqaruvning optimallashtirilishi, Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi tashkil etilish shular jumlasidandir. Amalga oshirilgan ishlar natijasida sayyohlar oqimining keskin oshishi, yangi turizm mahsulotlarini ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyilganligi, infratuzilmani takomillashtirishga oid saʼy-harakatlarning faollashuvi, xorijiy investorlarni jalb qilishning intensivlashuvi hamda Oʻzbekistonning koʻplab xalqaro turizm reytinglarda yuqorilashiga olib keldi.

Yangi Oʻzbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturi negizida soʻnggi besh yil mobaynida quyidagi tub islohotlar amalga oshirildi:

1. Hordiq industriyasini milliy, hududiy, kasbiy, tarixiy, madaniy xususiyatlar asosida jadal rivojlantirishning konseptual asoslari yaratildi.

2. Ichki va tashqi turizmning hozirgi holati va kelajagiga doir asosiy muammolarni tizimli monitoring qilib borish yoʻlga qoʻyildi.

3. Hordiq industriyasini rivojlantirishga doir xorijiy tajribalar negizida yangicha shakllar, yondashuvlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

4. Hordiqni sifatli tashkil etish orqali ayni bir makon, hududga takroriy tashrif buyurish amaliyotini kengaytirish va ana shu strategiyani amalga oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Yangi Oʻzbekistonda turizmning milliy modelining shakllantirilishi nafaqat iqtisodiy yuksalish, balki turmush tarzini farovonlashtirish, aholi uchun doimiy daromad manbalarini kengaytirishga yoʻl ochadi. Shuningdek, turizm orqali hordiq industriyasi rivoji mamlakatlar oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya oqimini taʼminlashda ham muhim asos boʻlib xizmat qiladi. Hozirgi zamon dunyo amaliyotida, asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat koʻrsatadi. Davlat esa tadbirkorlarga qulay iqtisodiy va huquqiy zaminni yaratib berishga urgʻu beradi. Ammo davlat hordiq industriyasi uchun kadrlarning kasbiy tayyorgarlik masalalari, atrof-muhitni tabiiy va madaniy muhofaza etish, byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish hamda rasmiyatchilikni soddalashtirish kabilar bilan shugʻullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi.

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari hamda amaldagi hujjatlarni tahlil etish shuni koʻrsatmoqdaki, Oʻzbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi koʻmagida mamlakatimizda faoliyat koʻrsatayotgan turizm tashkilotlarining yagona onlayn maʼlumotlar almashish tizimini yaratish ham taqozo etiladi. Tizim orqali barcha viloyatlardan meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, hisobotlar, oʻzaro maʼlumotlar almashishni tezlik bilan bajarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa oʻz navbatida mintaqadagi barcha turizm faoliyati koʻrsatadigan tashkilotlarda bir biriga koʻmak berishning yagona platformasi shakllanadi.

Maʼlumki, har qanday xorijiy investor qaysidir jihatdan biror bir davlatga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimiga yaratilgan huquqiy va turli manbalarga asoslanib pul tikishga qaror qiladi. Shunday ekan, hordiq industriyasini muayyan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga xolisona baho beruvchi barometr deyish mumkin. Shuningdek, xalqaro turizm samaradorligini oshirishda mamlakatdagi tinchlik, xavfsizlik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada ichki salohiyatimizni namoyon etish – tarixiy obidalar, ulugʻ ajdodlarimiz qadamjolarini obod qilish, tabiiy landshaft, moddiy-madaniy va meʼmorlik namunalarini dunyo andozalari darajasiga yetkazish, tur firmalar faoliyati kommunikatsiya tarmoqlari, transport infratuzilmalarini yaxshilash, umumiy ovqatlanish va koʻngilochar obyektlar imkoniyatlarini oshirish, davolash va sport yoʻnalishlarini faollashtirish yaxshi samara beradi. Shu bilan birga, respublikamiz hududlaridagi mavjud resurslarni har

taraf lama yuqori darajada namoyon etuvchi turdosh tashkilotlarning xo'jalik-tashkiliy majmualarini, ya'ni turizm klasterlari ishini samarali tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Agar ichki turizmni rivojlantirish borasidagi o'zgarishlarni muayyan viloyat negizida tahlil etilishi natijasi shuni ko'rsatadiki quyidagi manzara hosil bo'ladi. Xususan, 2018-2019 yillarda Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi bo'yicha jami 95 ta loyiha amalga oshirilib, Qarshi, Muborak, Nishon tumanlarida uchtdan, Koson tumanida oltita, Dehqonobod va Kitob tumanlarida ikkitadan, Qarshi shahrida 15 ta, Shahrisabz tumanida 12 ta loyiha ishga tushirilgan¹.

2021 yil natijalariga ko'ra esa mazkur viloyatda 387 loyiha ishga tushirildi. Me'moriy obidalarini ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari qamrovi ham kengaydi. Buning natijasida sayyohlik infratuzilmasi mustahkamlanib, sohada malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlik marketingi, menejmenti sifati o'zgarishiga hamda xalqaro turizm, mehmonxona boshqaruvi, xizmat ko'rsatish saviyasi ortishiga erishilmoqda. Tashqi va ichki investitsiyalar jalb etilayotgani sohadagi yirik loyihalar muvaffaqiyatida muhim omil bo'layotir. Qolaversa, hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari o'sishida ham o'ziga xos ahamiyat kasb etib, mintaqalar infratuzilmasi hamda yangi ish joylari yaratilishi hisobiga tarixiy va madaniy obyektlarni tiklashning katta imkoniyatlari yuzaga keltirilmoqda².

Ta'kidlash joizki, jahon iqtisodiyotida turizmdan ko'riladigan foyda Yevropaning rivojlangan mamlakatlari, Xitoy va Sharqiy Osiyoning YaIM va byudjet daromadlarining katta qismini, ayrim kichik davlatlar Malta, Kipr, Singapur davlatlari byudjetining esa 70-90 foizini tashkil qilmoqda. Bu esa ularda aholi bandligi ta'minlanishiga, turmush sifati hamda hayot darajasi sezilarli darajada oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sayyohlik sohasida tadbirkorlar faolligini rag'batlantirish, xizmatlar sohasi bozorini shakllantirish maqsadida bir qancha tumanlarda xalq hunarmandchiligi mahsulotlari va esdalik sovg'alar bilan savdo qiluvchi rastalar tashkil qilindi. Xorijiy va ichki turistlar hududlardagi turli hunarmandlik ashyolari va savdo rastalaridan turli esdalik buyumlarni mamnuniyat bilan xarid qilishmoqda.

Aholi turli tabaqalari vakillariga differensial yondashuvning yo'lga qo'yilgani, xususan, odamlarning yoshi, jinsi, kasb-kori, salomatligini e'tiborga olgan holda hordiq jarayonlarini tashkil etish xalqimiz uchun ayni muddao bo'ldi. Ayniqsa, yosh avlodning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi mobaynida hordiqiy aoliyatning uyg'un kechishi uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Ma'lumki, davlatimiz rahbari hordiqni ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlar bilan uyg'un tarzda yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni

ilgari surgan edi. Jumladan, birinchi tashabbus yoshlarning bo'sh vaqt doirasidagi hordiqni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, bu boradagi iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qilsa, ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan. Uchinchi tashabbus esa aholi va yoshlarning kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish negizidagi mazmunli hordig'ini tashkil etishga qaratilgan. To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Beshinchi tashabbusda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish orqali hordiq chiqarishi nazarda tutiladi.

Strategik reja tuzish esa uzoqni ko'zlab reja tuzishdir. Bu borada Konfutsiy fikrini keltirish o'rinlidir: «Agar bir yilga reja tuzmoqchi bo'lsang gurunch ek, agar o'n yilga tuzmoqchi bo'lsang daraxt ek, butun umrga reja tuzmoqchi bo'lsang bolalarni o'qit». Ish vaqti va hordiqni muvozanatda tutib ishlash va yashashga erishish uchun rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Qodirov L.X., Ravshanov D.S. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislari to'plami. "Durdona" nashriyoti, Buxoro – 2018, -B. 272.

² Berdiqulova M.T. Qashqadaryoda turizm: hududiy iqtisodiy rivojlanish va istiqbolli imkoniyatlar. O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. "Durdona" nashriyoti, Buxoro- 2020, -B. 158-159.

Rejalashtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur. Rejani miyada saqlash emas, balki qog'ozda yoki elektron variantda tuzish lozim. Bunda optimal hordiq chiqarishga ham qat'iy rioya etish, ya'ni, har bir soat ishdan so'ng 10 minut hordiq chiqarish yoki boshqa mashg'ulot bilan band bo'lish kerak.

Oilada vaqtni qadriyat sifatida e'zozlashga o'rgatish ham hayotda muvaffaqiyatga erishishda asosiy o'rinni egallaydi. Zero, hayotiy sharoitlar va vaziyatlar tez o'zgaruvchi va dinamikxususiyatga ega. Ana shu o'zgaruvchan jarayonda inson hushyorlikda hamda vaqt omilini hisobga olgan holatda faoliyat ko'rsata bilsagina muvaffaqiyatlarga erishadi. Bo'sh vaqtda hordiqni mazmunli tashkil etish va undan foydalanishning muhim jihati har bir kishining birlamchi, ya'ni, maishiy, tibbiy, xavfsizlik hamda ikkilamchi, ya'ni, ma'naviy, intellektual va madaniy ehtiyojlarini bosqichma-bosqich qondirish, ehtiyojlarni qondirish negizida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, odamlarning axloqiy va jismoniy rivojlanishiga e'tibor berishdan iboratdir. Zero, hordiq hodisasi nafaqat odamlarning dam olishi, balki ularning sog'ligini saqlash va mustahkamlash, madaniy saviyasi va dunyoqarashni o'stirish, axloqiy va estetik tarbiyalashning muhim shartidir. Chunki faqat hordiqni ongli tashkil etish jamiyatning ichki kuchlarini faollashtirish, inson kapitalini rivojlantirishga yo'l ochadi. Binobarin, shaxsning barkamollik, yetuklik mezoni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning nechog'li qondirib borilishi, ijtimoiy va individual maqsadlarning hayot o'zgarishlariga mos kelishi va mehnat natijalari bilan uyg'un bo'lishiga bog'liqdir.

Maqsadli harakatlanish vaqtdan unumli foydalanishning eng maqbul yo'li ekanligi ma'lumdir. Maqsadni to'g'ri qo'ya bilish tafakkurimizning faollashuviga ham olib keladi. Shu boisdan ham zamonaviy yoshlarni muvaffaqiyatli harakat qiluvchi yoki muvaffaqiyatsiz ishlovchi shaxslar toifasiga ajratishimiz mumkin. Muvaffaqiyatli ishlovchi yoshlarning siri vaqtdan unumli foydalanish o'z vaqtida hordiq chiqara olish uquviga egaligidadir. «Aniq maqsadli inson hatto eng og'ir yo'lni ham bosib o'tadi. Maqsadi yo'q inson esa, hatto eng silliq yo'lda ham joyidan siljimaydi», degan edi Tomas Karleyl. Har bir odamning shaxsiy va ijtimoiy faoliyatidagi muammolarni o'z vaqtida bartaraf etilishi vaqtdan unumli foydalanish va vaqtni boshqarish mahoratiga bog'liqdir. Mazkur masalalar yechimi «Taym menejment» tushunchasi orqali izohlanadi.

Insonga yuklatilgan ijtimoiy vazifalar hamda ish vaqtini boshqarish mahorati taym-menejmentda namoyon bo'ladi. Menejment-bu faqatgina zarur ishlarni samarali boshqarish tartibini tuzishgina emas, balki bo'sh vaqt va turli ijtimoiy yuklamalarni to'g'ri taqsimlash hamdir. Amerikalik taniqli olim Parkinsonning fikricha: «Agar vaqtni boshqarmasang, u qo'lingdan uchib ketadi». Vaqt haqida Vilfredo Paretoning «80/20 qoidasi» ham vaqtdan unumli foydalanishni ifodalaydi. Unga ko'ra «Inson umrining 80 foizini mayda-chuyda, keraksiz ishlarga, 20 foizini muhim, dolzarb ishlarga sarflar ekan».

Pareto qonuni 20 foiz kuch sarflash orqali 80 foiz natijaga erishish va aksincha: Paretoning «Disbalans tamoyili» vaqt, harakat va manbalarning kichik qismi natijaning katta qismiga javobgardir.

Mamlakatimizda turizm sohasini tubdan isloh etish, bu borada xorijiy mamlakatlarning nufuzli tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratish ijobiy natija bera boshladi. Respublikamizning barcha hududlarida jahon standartlariga mos keluvchi turizm infratuzilmasini yaratish, xalqaro standartlar va me'yorlarni joriy etish, sayyohlik yo'nalishidagi yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, xizmat ko'rsatish hamda logistika subyektlarini, tarixiy-madaniy va arxeologik obidalarni inventarizatsiya qilish, xalqaro turizm mezonlariga muvofiqlashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuning uchun, mamlakatimizda ichki va tashqi turizmni jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishga bo'lgan e'tiborning uyg'unligi;
- jalb qilinayotgan moliyaviy mablag'larning aholining doimiy daromad manbaiga ega qilish strategiyasiga bevosita bog'liqligi;

- ichki turizmga jalb etilgan vatandoshlarimizning hordiq chiqarishlari uchun nodavlat tashkilotlar, xususan, kasaba uyushmalari tomonidan ko'mak berilishi;
- hordiq industriyasini rivojlantirish yo'lida xizmat sohalariga yollanma ishchilar sonining ko'payishi hamda xizmatlar sifatining yaxshilanib borayotganligi;

- davlatlararo va hududlararo o'zaro aloqalar, mamlakatlar o'rtasida yaxshilanayotgan madaniy munosabatlarning hordiq industriyasi rivojiga samarali ta'sir ko'rsatayotgani;

- xizmat ko'rsatish hamda yuk tashish jarayonida telekommunikatsiya faoliyatining davlat tomonidan rag'batlantirilayotganligi va boshqalarni qayd etish mumkin.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida ichki va tashqi turizm sohasini mamlakatimizning jadal taraqqiy ettirishda drayver yo'nalishiga aylantirish imkoniyatini beradi. Buning uchun esa quyidagi yo'nalishlar rivojiga alohida e'tibor zarur:

- mamlakatimizning barcha viloyat va tumanlarida turizm infratuzilmasini takomillashtirish;

- har bir hududga etnomentall, ekologik, tibbiy, qishloq xo'jalik, madaniy, tarixiy artefaktlar makoni sifatida original imijini yaratish (Masalan, Yakkabog' tumani Amir Temurning tug'ilgan makoni va bolaligi o'tgan joy, Shahrisabz Amir Temur barpo etgan eng buyuk tarixiy obidalar shahri, Afshona – Ibn Sino tavallud topgan joy, Rishton Burhoniddin Marg'inoniyning kindik qoni to'kilgan joy va hokazo...);

- O'zbekistonga qo'shni davlatlar o'rtasida doimiy qatnovchi sayyohlik avtobuslari yo'nalishlarini yo'lga qo'yish;

- ichki va tashqi turizm subyektlari uchun ikkinchi marta qaytib keladigan sayyohlar uchun yo'l va mehmonxona xarajatlarining yarmini qoplab berish amaliyotini qo'llash;

- dunyoning 9 tilidan (ingliz, fransuz, italyan, ispan, german, rus, xitoy, yapon, koreys) kamida 2 tasini mukammal biladigan va O'zbekiston tarixi va madaniyatini chuqur o'zlashtirgan gidlarni tayyorlash.

Zamonaviy sharoitda rekreatsion va intellektual-madaniy rivojlanishga keng yo'l berishi uchun bo'sh vaqtni ko'paytirish hamda mehnat subyektlari sonini qisqartirishga qaratilgan tendensiya yuksak professionalizmga bo'lgan ehtiyojni hamda muayyan kasblarning ijtimoiy mavqeini, uning korporativ tabiatini ham o'zgartirmoqda. Mehnat obyekti va mehnat subyektining bunday transformatsiyasi kasblarning funksional tabiatini ham o'zgartirib, uni eng zaruriy qadriyatga aylantirmoqda. Ammo kasbiy mahorat, mehnat faoliyati mobaynida erishiluvchi samaradorlik jamiyat tomonidan insonga beriladigan erkinliklarni belgilashda hamon ustuvor omillar bo'lib qolmoqda. Aristotel bo'sh vaqtga ega bo'lmagan odamni achinishga loyiq deb hisoblardi: axir u do'stlari bilan uchrasa olmaydi, sudlarda va yig'ilishlarda qatnasha olmaydi¹⁵. Yunon donishmandlari dangasa, bekorchi odamni bo'sh vaqtni ma'nosiz o'tkazuvchi deb hisoblaganlar. Bo'sh vaqt ularga kundalik bajariladigan ishlardan ko'ra harakatchan va faol holat bo'lgan. Qadimgi yunonlarning fikriga ko'ra, dam olish — bu hayotning to'liqligi, erkinlik va ayni paytda normal, tabiiy va eng faol holatdir. Mehnat qilish esa – qiynalish, bir xildagi yumushlarni bajarish, yuk, zerikish, bunday faoliyatni ilm yo'li bilan oldini olish kerak bo'lgan. Shuning uchun ham mehnat, ayniqsa, jismoniy mehnat ilm va ma'rifatdan yiroq bo'lgan qullarning ishi hisoblangan. Yunonlar bo'sh vaqtdan samarali foydalanishni, ya'ni, falsafa bilan mashg'ullik, tafakkur, poeziya, musiqa, ong va hislar disputidacharxlanish, insonning faol va mazmunli hayot kechirish debbilishgan. Bo'sh vaqtda bekorchi yurish yunon ijodkorlariga begona edi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyat bu iste'molchilar jamiyatidir. Iste'molchilar jamiyati tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyalashgan odam madaniy ongining yangi ko'rinishi postmodernizm madaniyatida keng namoyon bo'ladi. Madaniy boyliklardan aholining foydalanish ko'lamining kengayishi va ularning bo'sh vaqtdan samarali foydalanish ko'nikmasining kundalik hayotga kirib borishi yangi madaniy dunyoqarashni shakllantirish uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA: O'zbekistonning boy intellektual, tarixiy, madaniy salohiyati, geografiyasi va bugungi kundagi baravj taraqqiyot tendensiyasidan kelib chiqib turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish istiqbollarini belgilash muhim ijtimoiy ahamiyatga egadir. Yaratilayotgan iqtisodiy

huquqiy shart-sharoitlar salomatlik, tibbiyot, ekoturizm, ekskursiya, sport, ekstremal hamda ziyorat turizmi singari yo'nalishlarni baravj rivojlantirishning katta imkoniyatlarini yuzaga chiqarmoqda. Vatanparvarlikning tayanch negizlaridan biri insonni o'zi yashab turgan yerning ona tabiatiga muhabbati hisoblanadi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari madaniy-ma'rifiy muassasalarning ishdan bo'sh kunlari aholi vakillarini jamoa bo'lib dam olishning uyushtirilishi korxona xodimlarining o'zaro totuvligi, hamjihatligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Oilaviy yoki jamoa bo'lib dam olish tadbirlari mahalliy shart-sharoitlarga, imkoniyatlarga qarab uyushtirilishi maqsadga muvofiq. O'zbekistondagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktabi hordiqni mazmunli tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, 130 ming nafar farzandlarimiz qamrab olingan. Ammo, bu yoshlarimizning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda yetarli emas. Shuningdek, sohaga xususiy sektor tashkilotlari uchun keng yo'l va imkoniyatlar berish maqsadga muvofiqdir. Xullas, turizmni yanada takomillashtirish uchun tashqi va ichki turizm doirasini kengaytirish, turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholi bandligini ta'minlash va ularning doimiy daromadlarini oshirib borilishi muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Qodirov L.X., Ravshanov D.S. Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani tezislar to'plami. "Durdona" nashriyoti, Buxoro – 2018, -B. 272.
- 2.Berdiqulova M.T. Qashqadaryoda turizm: hududiy iqtisodiy rivojlanish va istiqbolli imkoniyatlar. O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. "Durdona" nashriyoti, Buxoro- 2020, -B. 158-159.
- 3.Berdiqulova M.T. Qashqadaryoda turizm: hududiy iqtisodiy rivojlanish va istiqbolli imkoniyatlar. O'zbekistonni top o'n turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari" mavzusidagi xalqaro onlayn ilmiy-amaliy anjumanmateriallari to'plami. "Durdona" nashriyoti, Buxoro- 2020, 301 b.
- 4.Дарендорф Р. Гражданская ответственность интеллектуалов:против нового страха перед просвещением // Полис(Политические исследования). 1997. №6. С. 5